| Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region .....                                                   | 476 |
| <b>Daminova Barno Esanovna</b>                                                                                                                                |     |
| Moddiy xaziralarni boshqarish va uning bir tsikli modeli .....                                                                                                | 480 |
| <b>Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich</b>                                                                                                                        |     |
| Oliy taʼlim xizmatlari sifatini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish va uni samarali boshqarish mexanizmlari .....                                      | 485 |
| <b>Salimov Akmal Alimjonovich</b>                                                                                                                             |     |
| Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilgʻor xorij tajribalari .....                                                                                | 490 |
| <b>Shadiyev Alisher Xudoynazarovich</b>                                                                                                                       |     |
| Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilgʻi-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari .....               | 496 |
| <b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>                                                                                                                        |     |
| Oʻzbekistonda uzumchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga taʼsiri: muammolar va rivojlanish istiqbollari .....                                                    | 502 |
| <b>Tursunov Toʻlqin Joʻraqulovich</b>                                                                                                                         |     |
| Tadbirkorlik faoliyatining resurs salohiyati va uni baholashning nazariy yondashuvlari .....                                                                  | 508 |
| <b>Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon oʻgʻli</b>                                                                                                               |     |
| Yoshlar bandligini taʼminlashda mehnat migrasiyasining ahamiyati .....                                                                                        | 514 |
| <b>Masharipov Farrux Oʻtkirovich</b>                                                                                                                          |     |
| Oʻzbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning asosiy omillari va istiqbollari .....                                                                         | 521 |
| <b>Xasanova Mavjuda Maʼmirjonovna</b>                                                                                                                         |     |
| Korxonaning brend platformasini ishlab chiqishning oʻziga xos xususiyatlari .....                                                                             | 526 |
| <b>Saʼdulloyev Habibullo Ibodullo oʻgʻli</b>                                                                                                                  |     |
| Sanoat korxonalarining biznes jarayonlarini raqamli transformatsiya qilishda ERP tizimlarining integratsiyalashuvi va boshqaruv samaradorligiga taʼsiri ..... | 530 |
| <b>Islomjon Nurmukhammadov</b>                                                                                                                                |     |
| Namangan viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlanishini baholash .....                                                                                     | 533 |
| <b>Ismoilova Savinoz Qahramon qizi</b>                                                                                                                        |     |
| Oliy taʼlim muassalari boshqaruviga taʼsir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili .....                                                                      | 540 |
| <b>Karimov Muzaffar Abdumalik oʻgʻli</b>                                                                                                                      |     |
| Soliq yigʻiluvchanligini oshirishda soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish istiqbollari .....                                                            | 546 |
| <b>Tojibayev Farrux Baxtiyorovich</b>                                                                                                                         |     |
| Hisoblash mashinalari taraqqiyoti tarixi va uning raqamli iqtisodiyotda tutgan oʻrni .....                                                                    | 552 |
| <b>Rajabov Sirojiddin Mansurovich</b>                                                                                                                         |     |
| Korxonalar moliyaviy barqarorligiga taʼsir koʻrsatuvchi omillar va ularning xususiyatlari .....                                                               | 561 |
| <b>Choriyrov Behruz Ilhom oʻgʻli, Norqobilov Nusrat Norsaitovich</b>                                                                                          |     |
| Yashil texnologiyalar yordamida Oʻzbekiston hududlarida energiya tejamkorligi oshirish yoʻllari .....                                                         | 567 |
| <b>Norbekov Baxtiyor Suyunovich, Norqobilov Nusrat Norsaitovich</b>                                                                                           |     |



|                                                                                                                                                    |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Tijorat banklarida kredit majburiyatlarining bajarilishini monitoring qilish va uni takomillashtirish yo'llari.....                                | 572 |
| To'xtayeva Go'zal Ilhom qizi, Norqobilov Nusrat Norsaitovich                                                                                       |     |
| Интеграция проектного менеджмента и обеспечения качества в цепочках поставок: кейс Узгидромета.....                                                | 577 |
| Назарова Ирода Ибрагим кизи                                                                                                                        |     |
| Kichik biznes subyektlarini raqamlashtirish orqali raqobatbardoshligini oshirish.....                                                              | 583 |
| Ermatov Akmaljon Adxamovich, Raximov Alisher Numanovich                                                                                            |     |
| Концепция и методология экологического аудита в Узбекистане .....                                                                                  | 587 |
| Абидова Дилфуза Игамбердиевна                                                                                                                      |     |
| Повышающаяся значимость коренного изменения деятельности традиционных СМИ в реалиях освещения процесса построения нового Узбекистана.....          | 593 |
| Салим Дониёров                                                                                                                                     |     |
| O'zbekiston Respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining tarkibiy tuzulishi .....                                  | 598 |
| Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li                                                                                                                  |     |
| Shahar va qishloqlarda inson resurslari holatining analitikasi (tahlili)ning nazariy masalalari.....                                               | 607 |
| Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov                                                                                    |     |
| Strategic alliance networks as competitive advantage: evidence from mit-tum partnership model at new Uzbekistan university .....                   | 613 |
| Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi                                                                                                              |     |
| Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning nazariy asoslari.....                                    | 618 |
| Uralov Temur Boxodir o'g'li                                                                                                                        |     |
| O'zbekiston bank amaliyotiga ai va simulyatsiya modellarini joriy etish orqali muammoli kreditlarni qaytarish jarayonlarini optimallashtirish..... | 618 |
| Xodjayev Husniddin Mukammilovich                                                                                                                   |     |
| O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish .....                                                    | 624 |
| Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Jamshid Sharafetdinovich                                                                                         |     |
| Xorazm viloyatida iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashdagi muammolar va imkoniyatlar .....                                                     | 628 |
| Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li                                                                                                             |     |
| Ekologik joylashtirish vositalarida qo'llaniladigan innovatsiyalar .....                                                                           | 633 |
| Abidova Dilfuza Igamberdievna                                                                                                                      |     |
| Ziyorat turizmini rivojlantirishning metodologik va metodik asoslarini takomillashtirish yo'nalishlari .....                                       | 638 |
| Uzaqov Jamshid Norboyevich                                                                                                                         |     |
| Gaz sanoatining moliyaviy boshqaruvi va milliy iqtisodiyotdagi barqarorlik omili sifatida roli.....                                                | 650 |
| Ergashev Muhubbek Aslam o'g'li                                                                                                                     |     |
| Davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratning ahamiyati .....                                                         | 655 |
| Erkinova Maftuna Zafarovna                                                                                                                         |     |
| Влияние дивидендной политики, СПО и капитализации на волатильность акций АО «УЗРТСБ»: Эконометрический и поведенческий анализ.....                 | 662 |
| Пулатов Улугбек Хапизович                                                                                                                          |     |
| Hududiy jihatdan ziyorat turizmi rivojlanishining holati: Qashqadaryo viloyati misolida.....                                                       | 671 |
| Uzaqov Norboy, Uzaqov Jamshid Norboyevich                                                                                                          |     |



# HUDUDIIY JIHATDAN ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANISHINING HOLATI: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA



## Uzaqov Norboy

Professor, i.f.d., Rossiya gumanitar fanlar akademiyasi akademigi

ORCID: 0009-0002-1073-3761

[norboyuzokov0660@gmail.com](mailto:norboyuzokov0660@gmail.com)



## Uzaqov Jamshid Norboyevich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Dotsent, i.f.f.d., (PhD)

ORCID: 0009-0002-6420-9076

[jamshiduzokov0660@gmail.com](mailto:jamshiduzokov0660@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Qashqadaryo viloyati misolida ziyorat turizmining hududiy jihatdan rivojlanish holati tahlil qilinadi. Ziyorat turizmi O'zbekistonning turizm sohasi ichida muhim o'rin tutib, nafaqat iqtisodiy, balki madaniy-ma'naviy rivojlanishning ham asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Viloyatda joylashgan tarixiy va diniy obidalar, muqaddas ziyorat maskanlari ushbu yo'nalishning salohiyatini belgilaydi. Tadqiqotda Qashqadaryo hududidagi mavjud infratuzilmalar, xizmat ko'rsatish sifati, axborot bilan ta'minlanganlik, sayyohlar oqimi va hududiy marketing faoliyatlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** ziyorat turizmi, hududiy rivojlanish, Qashqadaryo viloyati, infratuzilma, xizmat sifati, muqaddas maskanlar, turizm salohiyati.

**Abstract:** The article analyzes the state of development of pilgrimage tourism in a regional context, using the example of the Kashkadarya region. Pilgrimage tourism holds an important place in Uzbekistan's tourism sector and is regarded not only as an economic factor but also as one of the key drivers of cultural and spiritual development. The historical and religious monuments, as well as sacred sites located in the region, determine the potential of this direction. The study examines the existing infrastructure in the area, the quality of services provided, the availability of information, tourist flows, and regional marketing activities.

**Key words:** Pilgrimage tourism, regional development, Qashqadaryo region, infrastructure, service quality, sacred sites, tourism potential.

**Аннотация:** В статье анализируется состояние развития паломнического туризма в региональном разрезе на примере Кашкадарьинской области. Паломнический туризм занимает важное место в туристической сфере Узбекистана и рассматривается не только как экономический, но и как один из ключевых факторов культурно-нравственного развития. Исторические и религиозные памятники, святые места, расположенные на территории области, определяют потенциал данного направления. В рамках исследования изучены существующая инфраструктура в регионе, качество предоставляемых услуг, информационное обеспечение, потоки туристов и региональная маркетинговая активность.

**Ключевые слова:** паломнический туризм, территориальное развитие, Кашкадарьинская область, инфраструктура, качество обслуживания, святые места, туристический потенциал.



## KIRISH

Jahonda ziyorat turizmini tashkil qilish va ularning salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar tarkibida ziyorat turizmi salohiyatini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va shakllantirish bosqichlari, alomatlari, amal qilish samaradorligi, boshqaruv organlari tuzilishi, tarmoqda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, biznes hamkorlar bilan vertikal va gorizontal aloqalar o'rnatish, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va xizmatlarni yaratish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston zaminida ko'plab muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalar mavjud bo'lib, ular ziyorat turizmini rivojlantirishda katta salohiyatga ega. Xususan, Qashqadaryo viloyati bu borada alohida ahamiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Ushbu viloyatda joylashgan mashhur ziyorat maskanlari – mashoyixlar maqbaralari, tarixiy me'moriy yodgorliklar va diniy markazlar mamlakatning turistik xaritasida o'ziga xos o'rin egallagan.

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati misolida ziyorat turizmining hududiy rivojlanish holati tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Butun Jahon turizm tashkilotining (UNWTO) xabar berishicha XXI asr – turizm asri deya takidlanmoqda. Darhaqiqat bugungi kunda turizm jahon tovarlar va xizmatlar eksportida to'rtinchi, undan keladigan daromad bo'yicha esa uchinchi o'rinda turadi. Turizm butun dunyo yalpi ichki mahsulotidagi ulushi esa 10 % ni tashkil etmoqda. Buning natijasida turizmni rivojlantirish va sayyohlarni jalb etish chora-tadbirlari dunyoning ko'plab davlatlarida yo'lga qo'yilgan. Shuningdek turizmning yangicha yo'nalishlari bo'lgan ziyorat turizmni rivojlantirish ham muhim masalalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ziyorat turizmini tushunchasi va mohiyati xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ular jumlasiga Digance J, Margry.J. P, Kavanagh, Joanne, Bauman, Zygmunt, Coelho, Paolo kabi olimlarni kiritishimiz mumkin.

Din turizmning jamiyatdagi tutgan o'rni va ahamiyatini tushunishning asoslari XX asrning 60-70 yillarida yaratilgan bo'lsa-da, masalaning hududiy va an'anaviy xususiyatlarini hisobga olib, mazkur muammo yuzasidan turlicha yondashuvlar qayd etiladi. Masalan, Ch.Glok va R.Stark, D.Batson, M.Veber, K.Rivyer, G.Lenski, R.Stark, Dj.M.Yinger, D.Devidson va boshqalarning yondashuvlarida mazkur masala yuzasidan turlicha g'oyalar ilgari suriladi [1]. Turizmning geografik jihatlarini D.Pirs, P.N.Zachinyayev, N.S.Falkovich, E.A.Kotlyarov, M.A.Ananayev, Yu.S.Putrik, V.V.Sveshnikov, A.A.Samoylenko, S.R.Erdavletov, L.Alibekov, M.Aliyeva, P.Baratov, A.Soliyev, A.Nig'matov, A.Nizomov, M.Nurmatov., A.Xodjimatom, N.Shomurodova, Z.Amanbayeva, Sh.Yakubjanova, Sh.Xolmurodov, Sh.Shomurotova kabi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. B.Tojiboyevning fikricha esa muqaddas joylar duo ijobat bo'ladigan joylardir [3]. Ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirish muammosining ayrim yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqishga mamlakatimizning "A.A.Eshtayev [4], Z.B.Navro'z-zoda singari olimlar ham munosib hissa qo'shdilar [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmi salohiyatining hududiy rivojlanish holatini baholashda tizimli, kompleks va hududiy yondashuvlar asos qilib olindi. Tadqiqotning metodik asosini ziyorat turizmi salohiyatining asosiy tarkibi va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ifodalovchi konseptual model tashkil etadi. Ushbu model doirasida Qashqadaryo viloyatining ziyorat turizmi salohiyati to'rtta asosiy yo'nalishda o'rganildi: ziyorat turlari salohiyati, ijtimoiy salohiyat, tarixiy-madaniy salohiyat va iqtisodiy salohiyat.

Ziyorat turlari salohiyati – viloyatda mavjud bo'lgan muqaddas qadamjolar, ziyorat marosimlarining xilma-xilligi va ularning hududiy taqsimoti asosida baholandi.

Ijtimoiy salohiyat – ziyoratchilar uchun yaratilgan qulayliklar, mahalliy aholi ishtiroki va turizmning ijtimoiy ta'siri orqali aniqlashtirildi. Uchinchi yo'nalish – tarixiy-madaniy salohiyat, Qashqadaryo hududidagi tarixiy obidalar, diniy-ma'naviy yodgorliklar va ularning saqlanish holati asosida tahlil qilindi. To'rtinchidan, iqtisodiy salohiyat orqali ziyorat turizmi faoliyatining viloyat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasi, xizmatlar ko'lam va daromad keltiruvchi omillar o'rganildi.

Ziyorat turizmi salohiyatining yuqoridagi tarkibiy qismlarini to'laqonli ishga solish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar ham alohida baholandi. Bular to'rtta asosiy elementdan iborat: infratuzilma, moliyaviy ta'minot, investitsion faoliyat va boshqaruv tizimi. Jumladan, infratuzilma bo'yicha transport-logistika tizimi, mehmonxona va ovqatlanish xizmatlari holati; moliyaviy salohiyat bo'yicha turizmga yo'naltirilayotgan byudjet va xususiy mablag'lar hajmi; investitsion omillar bo'yicha ichki va tashqi sarmoya jalb qilish imkoniyatlari; boshqaruv yo'nalishida esa davlat siyosatining muvofiqlashtirish mexanizmlari va strategik rejalashtirish darajasi o'rganildi.



Mazkur yondashuvlar orqali Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmi salohiyatining real holati va uni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillar aniqlab beriladi.

Tahlil va natijalar. Ziyorat turizmi salohiyati – ziyorat turizmi industriyasini rivojlantirish va uning faoliyat yuritishidan ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishish va ularning turizm jozibadorligi darajasini oshirish imkoniyatlari mavjudligi. Turizm salohiyati – turizm faoliyatini tashkil etish maqsadida mavjud resurslar yig'indisi. Ziyorat turizmi sohasining ijtimoiy salohiyati – turizm faoliyatini amalga oshirish uchun zarur ishchi kuchini takror barpo etish imkoniyatlari. Chunki turizmning faqat moddiy resurslaridan foydalanib, hududiy turizm mahsulotini ishlab chiqarish, tarqatish, ayirboshlash va iste'mol qilish mumkin emas. Bu shuningdek, funksional maqsadlarga erishish uchun turizm faoliyatini amalga oshirishga qodir maxsus tayyorlangan malakali kadrlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy salohiyat – mamlakatning turizm mahsulotini takror ishlab chiqarish sohasidagi qobiliyatini tavsiflovchi iqtisodiy (xo'jalik) salohiyatining ajralmas qismi, ya'ni turizm mahsulotini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan potensial mos kuchlar va vositalar (moddiy, tabiiy, mehnat va boshqalar). U quyidagi salohiyatlarni o'z ichiga oladi:

- infratuzilmaviy salohiyat. Turizm mahsuloti ishlab chiqarish talablariga mos keluvchi, turizm faoliyatini amalga oshirish hamda ularning xodimlari va rekreatlari ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash bo'yicha joylashtirish, dam olish, ovqatlanish, transport kompaniyalari va hokazolarning imkoniyatlari;

- moliyaviy salohiyat. Mamlakat ziyorat turizmi faoliyatini amalga oshirish uchun ega bo'lishi mumkin bo'lgan mablag'lar hajmini ifodalaydi;

- investitsiyaviy salohiyat – turizm faoliyatini investitsiyalash bo'yicha jami imkoniyatlar; boshqaruv salohiyati. Ziyorat turizmi sohasining shakllanishi, tashkil etilishi, faoliyat yuritishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishida boshqaruvning barcha darajalariga rahbarlik qilish ko'nikma va qobiliyatlari.

Axborot salohiyati. Boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilishni ta'minlovchi hamda axborot resurslarini to'plash, tejash, qayta ishlash va tarqatish orqali turizm mahsulotini ishlab chiqarish xususiyatiga (o'ziga xosligiga) ta'sir etuvchi tashkiliy-texnik va axborot imkoniyatlari yig'indisi.



1-rasm. Ziyorat turizmi salohiyatining asosiy tarkibi va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi.

Ziyorat turizmining rivojlanishini tartibga solish masalalari ziyorat turizmi uchun erkin bozor muhimligi e'tirof etilishiga qaramay, davlat bu sohada samarali iqtisodiy siyosat olib borishi mumkin va kerak deb hisoblaydi.

Ziyorat maskanlarining soni va joylashuvi bo'yicha O'zbekistonning turli hududlari ma'lum darajada farq qiladi. Bu holat ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston bo'yicha umumiy hisobda 1257 ta ziyoratga oid diniy obida mavjud bo'lib, ulardan 1183 tasi islomiy yodgorliklardir. Shu bilan birga, hududiy va amaliy jihatdan faol turistik yo'nalishlarga kiradigan asosiy ziyorat maskanlari soni 525 tani tashkil qiladi. Qolganlari esa xristian, yahudiy va boshqa dinlarga oid obidalaridir. Ziyoratgohlar soni va ularning joylashuvi bo'yicha yetakchi viloyatlar qatorida Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent shahri ajralib turadi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy yodgorliklar va qadimiy qadamjolarining mavjudligi bu hududlarda ziyorat turizmini strategik darajada rivojlantirish imkonini beradi.



1-jadval. Hududlar bo'yicha amaliy jihatdan faol ziyorat maskanlari soni

| №                                  | Hudud                | Ziyorat maskanlari soni |
|------------------------------------|----------------------|-------------------------|
|                                    | <b>Jami</b>          | <b>525</b>              |
| 1                                  | Samarqand viloyati   | 160                     |
| 2                                  | Buxoro viloyati      | 120                     |
| 3                                  | Qashqadaryo viloyati | 37                      |
| 4                                  | Toshkent shahri      | 30                      |
| 5                                  | Farg'ona viloyati    | 25                      |
| 6                                  | Xorazm viloyati      | 22                      |
| 7                                  | Namangan viloyati    | 20                      |
| 8                                  | Andijon viloyati     | 18                      |
| 9                                  | Surxondaryo viloyati | 16                      |
| 10                                 | Navoiy viloyati      | 14                      |
| 11                                 | Sirdaryo viloyati    | 10                      |
| 12                                 | Jizzax viloyati      | 10                      |
| 13                                 | Toshkent viloyati    | 8                       |
| 14                                 | Qoraqalpog'iston R.  | 5                       |
| <b>Qashqadaryo viloyati ulushi</b> |                      | <b>7 %</b>              |

Qashqadaryo viloyatida 37 dan ortiq amaliy jihatdan faol ziyorat maskanlari mavjud bo'lib, ular orasida Hazrati Sulton maqbarasi (Shahrisabz tumanida), Langar Ota ziyoratgohi (Qamashi tumanida), Mirijan Ota (G'uzor tumanida) va Imkanagiy maqbarasi (Shahrisabz tumanida), Abu Muin Nasafiy (Qarshi tumanida) kabi obyektlar alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu ziyoratgohlar nafaqat diniy e'tiqod nuqtayi nazaridan, balki ziyoratchilar tomonidan ziyorat qilinadigan ushbu maskanlar viloyat iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatining ziyorat turizmi bo'yicha umumiy Respublikadagi salohiyatining sezilarli ekanligini ko'rsatadi. Viloyatda joylashgan tarixiy-diniy obidalar soni va ularning mazmun-mohiyati, geografik joylashuvi, qadimiy shaharlar va ziyoratgohlarning qadamjolar bilan chambarchas bog'liqligi – hududni noyob turistik resursga aylantiradi.

Demak, Qashqadaryo viloyatida mavjud 37 dan ortiq ziyorat maskanlari nafaqat diniy-ma'naviy jihatdan, balki iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish imkoniyati sifatida ham katta ahamiyatga ega. Agar ushbu resurslar bo'yicha kompleks ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilsa, zamonaviy infratuzilma yaratilsa, xorijiy turistlarga mos xizmatlar yo'lga qo'yilsa va tizimli targ'ibot ishlari amalga oshirilsa, Qashqadaryo viloyati ziyorat turizmining mamlakatdagi eng kuchli markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakat hududlarida, ayniqsa Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Navoiy va Qoraqalpog'iston kabi mintaqalarda mavjud bo'lgan ko'plab ziyorat maskanlari hali to'liq ilmiy o'rganilmagan, hujjatlashtirilmagan yoki turizm bozorida faol ishtirok etmayapti. Bu maskanlar zamonaviy xizmatlar infratuzilmasi, marketing yondashuvi va xizmatlar tizimining yetishmasligi tufayli hozircha faqat mahalliy ziyoratchilar bilan cheklanib qolgan holda faoliyat yuritmoqda.

Ko'pchilik tarixiy-diniy obyektlar turistik aylanmalardan tashqarida qolgan, ularning atrofida xorijiy yoki hatto ichki sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmagan. Jumladan, transport-logistika infratuzilmasi (yo'llar, belgilar, jamoat transporti), raqamli navigatsiya vositalari (onlayn xaritalar, sayyohlik platformalari), mehmonxona va ovqatlanish joylari, sanitar-gigiyenik sharoitlar, tarjima va gidlik xizmatlari yetarli emas. Bu esa chet ellik sayyohlar oqimini jalb qilish imkoniyatlarini keskin pasaytiradi.



Shuningdek, aksariyat hududlarda ziyorat maskanlari iqtisodiy qiymatga ega obyektidan ko'ra, faqat ma'naviy ramz sifatida baholanmoqda. Ular atrofida xizmatlar tarmog'i, savdo, hunarmandchilik eksporti yo'lga qo'yilmagan. Holbuki, ziyorat turizmi — bu faqat diniy sayohat emas, balki infratuzilmani rivojlantiruvchi, yangi ish o'rinlari yaratadigan, soliq bazasini kengaytiradigan, kambag'allikni kamaytirishga xizmat qiluvchi ko'p tarmoqli iqtisodiy faoliyat turidir.

Respublika bo'yicha 1200 dan ortiq ziyorat maskani mavjud bo'lsa-da, ularning atigi 40–45% atrofida faol turistik xizmatlarga integratsiyalashgan. Bu esa milliy iqtisodiyot uchun salmoqli boyliklar manbasi bo'la turib, foydalanilmagan imkoniyatlar ko'lamining juda katta ekanligidan darak beradi.

Hududlarning iqtisodiy rivojlanishi mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Ziyorat turizmi esa bu jarayonning katalizatori sifatida hududiy tengsizliklarni kamaytirish, ichki talabni kuchaytirish va eksport xizmatlarini ko'paytirish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishi mumkin.

Shunday ekan, ziyorat turizmini yanada rivojlantirish, uning hududiy va milliy iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish, mavjud salohiyatdan to'laqonli foydalanish uchun quyidagi takliflar ziyorat turizmini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida tavsiya etiladi:

Ziyorat maskanlarida turistik xizmatlar ko'rsatish darajasini oshirish va ziyoratchilarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, ushbu maskanlarni mulk huquqisiz, uzoq muddatli foydalanish asosida xususiy tadbirkorlik subyektlariga berish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv:

ziyoratgohlarning tarixiy-ma'naviy va davlatga tegishli maqomini saqlab qolgan holda, xususiy sektorni xizmat ko'rsatish bozoriga jalb etish imkonini yaratadi va davlat byudjetiga ortiqcha yuklamasiz tarzda hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ziyorat maskanlarining ilmiy tavsifi, tarixiy manbalari, diniy-madaniy merosi, me'moriy xususiyatlari bo'yicha to'liq bazalar tuzish;

Har bir viloyat bo'yicha “ziyorat turizmi salohiyati pasporti” ishlab chiqish;

Ziyoratgohlar atrofida hunarmandchilik, agro-turizm, savdo va mahalliy xizmatlar majmuasi rivojlantirish;

Ziyorat turizmi infratuzilmasiga sarmoya jalb qilish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar mexanizmi ishlab chiqish;

Qashqadaryo viloyati va unga o'xshash salohiyatli hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirish — nafaqat tarixiy-ma'naviy qadriyatlarni asrash va targ'ib qilish, balki mahalliy iqtisodiyotni tiklash, bandlikni oshirish va xalq farovonligini mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega. Mazkur soha tizimli rivojlantirilsa, O'zbekiston ziyorat turizmi bo'yicha nafaqat Markaziy Osiyoda, balki musulmon dunyosida yetakchi o'rinlardan birini egallashi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Социология религии Вебер М. Социология религии. (Типы религиозных сообществ) // Избранное. Образ общества. – М., 1994. – С. 41-47.
2. Tastanbekov M.M., Dinashveva L.S., Orazkhan N.O., Ospanova A. Pilgrimage Of Turkestan Muslims After joining To Russia // 2nd Cyprus International Conference on Educational Research, (CY-ICER 2013). Procedia - Social and Behavioral Sciences 89. – 2013. – Pp. 667-675.
3. Тошқубри Зода. Аш-шақоиқу-н-Нуъмония фи уламои давлати-л-Усмония. – Байрут: Дору-л-китобиларабий, 1975. – Б. 29.
4. Eshtayev A.A. O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. (Monografiya) – Samarqand: “Ipak yo'li” Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nashriyoti, 2023. – B. 8;
5. Navruz-Zoda Z.B. Turistik hududlar negizida ziyorat klasterlarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: Iqt. fan. bo'y. fals. dok. diss. ... avtoref. – Buxoro, 2021. – B. 57.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>